



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

PEDAGOGIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNALOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Egamnazarov Murod Yusupovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası v.b. dotsenti

Anatatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatini shakllantirish mexanizmlari va texnologiyalari yoritilgan va bu maqolada oqitish texnologiyalarining izohlanadi.

Анатация: В статье описаны механизмы и технологии формирования коммуникативных способностей студентов посредством лично-ориентированных технологий обучения в организации педагогической деятельности, а также даны разъяснения технологий обучения.

Anatation: This article describes the mechanisms and technologies of formation of students' communicative abilities through person-centered learning technologies in the organization of pedagogical activity, and this article explains the teaching technologies

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyat, shaxs faoliyati, o‘qitish texnologiyalari, kommunikativ qobiliyat, o‘quv hamkorligi.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, личностная деятельность, технологии обучения, коммуникативные навыки, учебное сотрудничество.

Key words: pedagogical activity, personal activity, teaching technologies, communication skills, educational cooperation

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb ataladi.

Shu o‘rinda aytishimiz lozimki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmonini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Farmonda mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish vazifalari belgilangan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o‘tishda oliy ta’lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishda ustuvor vazifalar qo‘ydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirar ekan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - deb ta’kidlaydi Prezident [1].

Pedagog olimlar tomonidan ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- hamkorlik pedagogikasi;
- adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi;
- o'yin texnologiyasi;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;
- muammoli o'qitish texnologiyasi;
- differensial o'qitish;
- individual o'qitish texnologiyasi [2].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya asosida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi.

Bugungi kunda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etishda shaxsning ijtimoiy-kasbiy bilimdonligining rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlar va intilishlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qitish sifatini o'quv faoliyatining turli yo'nalishlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar yig'indisi belgilaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil qilish turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo'llash orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi jarayonlarni hisobga olish ustuvor vazifa hisoblanadi

1. Hamkorlik pedagogikasi- bu jarayon asosan XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va bu jarayon asosan o'qitish texnologiyasida juda ko'plab imkoniyatlarni yaratib berdi xususan talabalarning kommunikativ qobiliyat salohiyatini oshirdi.

- O'z ustida ishlashga nisbatan ehtiyojlarning paydo bo'lishi
- Muloqot tizimida samarali va maqsadli mulohazalarning yaratilishi
- Suhbatdoshining imkoniyatlari, hissiy kechinmalari, yo'nalganlik darajalari, xoxish istaklari va mayillarini tushunish borasidagi mulohazalar

- Ijtimoiy foydalilik darajasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish
- Layoqatlilik darajalarining kashf etilishi va rivojlantirilishi

2. Pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya – bu jarayonda shaxsiy fazilatlari va ehtiyojlatini ijobiy taraflama shakllantirish orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish ko'zda tutiladi bu texnologiyadan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilarni qamrab oladi

- Har bir o'quv faoliyatining masadi sifatida insonparvarlikka asoslangan holda tushunchalarini shakllantirish

- Shaxs ehtiyojlari va jamiyat ehtiyojlarini birlashtirish. Shaxs va jamiyat birligini taminlash. Jamiyatda shaxsga bo'lgan hurmat tuyg'usi va shaxsda jamiyatga hurmat tuyg'usini rivojlantirish.

- Talaba shaxsining bilishga bo'lgan intilishini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini joriy etish. Xususiy tushunchalarni umumiy tushunchalarga moslashtirish.

- Talabalarda malakni shakillantirishda shaxsiy yondashuvlari orqali. Ijtimoiy yondashuv muammolarini yaratish, o'zaro tajriba almashinishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish.

- Talabalarning faoliyati jarayonida o'z-o'ziga bahoning yuzaga kelishi va rivojlanishi.

3. O'quv materiallarini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi – bu texnologiya orqali talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi bu texnologiyada asosan o'qitish suratining tezlashishi maqsad sifatida qaraladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilarda o'z aksini topadi.

- Takrorlash va takrorlash orqali mustahkamlashga erishish.

- Bosqichma bosqich nazoratni taminlash. Qaysi ma'lumot qaysi ma'lumotning tarkibida rivojlanayotganligini sodda shakilda ifodalash va tushuntirish

- Bahs munozaraga asoslangan mavzuli muammolarni yarata olish ijodiy va shaxsiy fikirlash orqali ilmiy fikirlash daradalarini rivojlantirish.

- Amaliyotga qo'llash darajasini birgalikda o'rganib chiqish yagona fikrlarni yaratish.

- Asosiy fikr mulohazalarning markaziy o'rni sifatida shaxs va shaxs manfaatlariga xizmat qilishini taminlash.

4. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya – bu texnologiya orqali talabalarning kommunikativ faoliyatini faollashtirish va maqsadli faollikni yuzaga keltirish orqali ijtimoiy jamiyatdagi mavqeyini yuzaga keltirish bu jarayonda quyidagi omillar nazarda tutiladi.

- O'quv jarayonini shaxs manfaatlari bilan birlashtirib yagona shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni yuzaga keltirish.

- O'quv va jarayonining shaxs ijtimoiy hayotiga aloqadorligini talaba ongiga yetkaza olish.

- O'quv faoliyatini tashkillashtirishda individual xususiyatlarini o'rgangan holda jamoaviy ishlash jarayonini yuzaga keltirish.

5. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi

- Shaxsiy o'zlashtirishning yuqori darajaga chiqishi

- Pedagogik faoliyatning samarali yo'lga qo'yilishi va yangicha jabhalarning kashf etilishi

- Individual qirralarning kashf etilishining jadallashuvi jarayoni

- O'quvchi va o'qituvchi muloqot tizimining samarali yo'lga qo'yilishi

- Birgalikda ishlash har ikki tarafning aniq maqsadlarini tushunish va shu maqsadlar asosida yangi o'qitish mexanizimini yaratish

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda ta'lim mazmuni takomillashtirish, qo'llanma va tavsiyalarni yaratish bilan bir qatorda ta'lim jarayonini faollashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining dastlabki bosqichida mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda har bir ta'lim muassasi, har bir o'qituvchi dars mashg'ulotlarida u o'zining amaliy tabdiqini topmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ” Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. T, 2017. 197-bet
2. “Umumiy pedagogika”, o'quv qo'llanma. O.Musurmanova, X.Ibraimov va b. –Toshkent, “Navruz” nashriyoti, 2019 yil. 86 bet
3. Rafikovna S. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI TA'LIMIDA SHAXSGA YO 'NALTIRILGAN YONDASHUVNING SAMARADORLIGI //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 38. – С. 304-309.
4. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni o 'qitish metodikasi //Fan va talim” Buxoro-2022.–2022. – 2022.
5. Jo'raqulovna E. M. et al. O 'QITUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //JAMIYATNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA PEDAGOG FAROVONLIGI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2026. – Т. 1. – №. 1. – С. 977-982.
6. Turg'unov S. T. et al. Padagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari //O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI» nashriyoti. – 2014.
7. Migranova E. A., Pozilova S. X. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish //o'quv qo'llanma) T. – 2017.
8. Mirhayitova S. I. Pedagogik texnologiya //Muqimiy nomidagi Qoqon Davlat Pedagogika Instituti, pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2020. – 2020.
9. Tojiyev M., Ziyomuhammadov B. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat //T.: Tafakkur Bo 'stoni. – 2012.
10. Axmedjanov M. M., Xo'jayev B. Q., Hasanova Z. D. Pedagogik mahorat //O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – 2010.